

ShAXMATChILAR BELLASHUVI



ShAXMATChILAR BELLASHUVI

Aholi o'rtasida sportni targ'ib qilish, sohaga ayniqsa, yoshlarni keng jalb etish maqsadida tumanimizda turli sport tadbirlari o'tkazilmoqda. Tuman madaniyat markazida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar Ittifoqi So'x tuman Kengashi tashabbusi bilan 10, 14, 15 va 19 yosh toifasidagi sportchilar o'rtasida shaxmat bo'yicha tuman birinchiligi o'tkazildi. Ushbu sport tadbirida 100 dar ortiq yosh shaxmatchilar ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritish uchun dona surishdi. 15-19 yosh toifasidagi sportchilar o'rtasida birinchi o'rin 8-sonli UO'T maktabining 8-sinf o'quvchisi Avazbek Olimovga nasib etdi. 13-sonli maktab o'quvchisi Hisenjon Sultonaliyev ikkinchi va 16-sonli maktab o'quvchisi Azamat Esanaliyev uchinchi o'rinni egalashga muvaffaq bo'lishdi. 10 yoshli sportchilar o'rtasidagi bahslarda 1-o'rin 16-sonli maktab o'quvchisi Shohmirzo Esanaliyev va ikkinchi o'rin 14-son maktab o'quvchisi Ruhlatjon Ahmadaliyevga nasib etdi. G'olib va faol ishtirokchilarga tashkilotchilarning faxriyanoma va esdalik sovg'alari taqdim etildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2021-01-18 18:29:59